SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

5-maxsus son (5-jild)

2025

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V5SI5Y2025

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

***№ S/5 (5) – 2025***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**TOSHKENT-2025**

**BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**TAHRIR HAY’ATI:**

*07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O‘zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori, O‘zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o‘g‘li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo‘limi.

*08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O‘ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg‘ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

*09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo‘raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G‘aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, “Tashkent International University of Education” xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo‘min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O‘roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

*10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko‘chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G‘aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

*12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat Gʻaybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), Oʻzbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Joʻrayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom oʻgʻli — yuridik fanlar boʻyicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

*13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

*19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport boʻyicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot boʻlimi psixologik xizmat boshligʻi.

*22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Poʻlatovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Boʻtayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

**OAK Roʻyxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari boʻyicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar roʻyxatiga kiritilgan.

**"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari"** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat roʻyxatiga olingan.

**Muassis**: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyogʻoch koʻchasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bogʻlanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
5-jild, 5- maxsus son (Iyun, 2025). - 302 bet.

**MUNDARIJA**

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

*Abdullaev Ulug'bek Saydanovich*
O'RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDAGI ETNIK NOMLAR ........ 10-14

*Shukurillayev Yunus Asrorovich*
BUXORO AMIRLIGIDA CHEGARALARNI QO'RIQLASH, QOROVULLIKNI O'TASH VA XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH MASALALARI TAHLILI ........ 15-19

*Рахманкулова Адолат Хушбаковна*
ИСТОРИЯ ГРЕЧЕСКОЙ ДИАСПОРЫ УЗБЕКИСТАНА: СПЕЦПЕРЕСЕЛЕНЦЫ И ПОЛИТИЧЕСКИЕ ЭМИГРАНТЫ ........ 20-25

*Xusanov Xabibullo Xakimovich*
O'ZBEKISTON MILLATLARARO MUNOSABATLARIDAGI ZIDDIYATLI VAZIYAT VA MILLIY MADANIY MARKAZLARNING TASHKIL QILINISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI ........ 26-30

*Toshov Kamoliddin, Xurramova Sabrina Abdurashidovna*
THE PROBLEM OF CHILD NEGLECT DURING THE SECOND WORLD WAR ........ 31-38

*Atamuratova Dilafruz Rashidovna*
THE FORMATION OF THE PRESS OF THE KhPSR AND THE ESSENCE OF SOCIAL PROBLEMS IN IT........ 39-42

*Nazirov Baxtiyor, Mo'minov Nodirbek Botir o'g'li*
IMOMQULIXON DAVRI ASHTARXONIYLAR DAVLATINING IJTIMOIY-IQTISODIY VA HARBIY-SIYOSIY HAYOTI ........ 43-48

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

*Исламутдинов Вадим*
СОСТОЯНИЕ И НАПРАВЛЕНИЯ СНИЖЕНИЯ БЕДНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН ........ 49-54

*Melibaeva Gulxon Nazrullayevna*
BENCHMARKING KICHIK INNOVATSION BIZNESNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA SAMARALI VOSITASI SIFATIDA........ 55-65

*Ульмас Ибрагимов*
ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОЙ МОДЕЛИ МАЛОГО БИЗНЕСА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ........ 66-75

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

*Salomova Hakima Yusupovna*
ME'YOR KATEGORIYASINING BIOSFERANI ASRASHDAGI AMALIY AHAMIYATI ........ 76-83

*Djumaniyozova Dilfuza, Ibraximova Dilorom*
YURIDIK TA'LIM VA YURIDIK KLINIKA FAOLIYATIDA AXLOQIY TARBIYA........ 84-90

*Djo'raev Anvar Muxamadiyevich*
IJTIMOIY BILISH DARAJALARINING MEZONLARI ........ 91-96

*Каримова Гулчехра Самадовна*
ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ЗАДЕРЖКИ ПОЛОВОГО РАЗВИТИЯ У ПОДРОСТКОВ: МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЙ СИНТЕЗ МЕДИЦИНСКИХ ДАННЫХ И АНТРОПОЛОГО-ЭТИЧЕСКИХ ........ 97-101

*Гайбуллаев Жавлон Шавкатович*
ДЫХАНИЕ КАК ЗЕРКАЛО ДЕТСТВА: ФИЛОСОФСКИЙ ВЗГЛЯД НА РЕЦИДИВИРУЮЩИЕ РЕСПИРАТОРНЫЕ ИНФЕКЦИИ ........ 102-105

*Yusupaliyev Orzimurod Odilovich*
YOSHLAR TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI ........ 106-110

*Taylyakova Feruzaxon Sultanovna*
OʻZBEKISTONDA OILAVIY BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI ........ 111-116

*Yusupova Ranoxon Tolibjonovna*
TEXNIK TARAQQIYOT AXLOQIY-STRATEGIK RESURS SIFATIDA ........ 117-120

*Yarashov Sarvar Norqul oʻgʻli*
SHAXSNING SHAKLLANISHIGA AXLOQIY IDEALLAR VA JAMIYATDA MAVJUD QADRIYATLARNING TAʻSIRI ........ 121-125

*Shokirov Toxirjon, Maxmudov Shoxrux*
ZARDUSHTIYLIK DINING VUJUDGA KELISHI VA UNDA MADANIYAT VA SAN’AT FALSAFASI ........ 126-130

*Ахмедова Дилбар, Шавкатова Ширин*
ПЕРВЫЕ ШАГИ В МИКРОМИРЕ: ФИЛОСОФСКИЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ О ДИСБИОЗЕ И АЛЛЕРГИИ У МЛАДЕНЦЕВ ........ 131-135

*Kurbanbaeva Ulbosin Jumagʻalievna*
EKOLOGIK TARBIYANING GUMANISTIK MOHIYATI ........ 136-139

**10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

*Miqutmova Dilafruz*
IRFONIY SAYRU SULUKNING JA’FAR MUHAMMAD TERMIZIY SHE’RIYATIDAGI MODERNISTIK TASVIRI VA TALQINI ........ 140-147

*Xoʻjamqulov Anvar, Togʻayeva Shoxnoza*
TAXAYYUL OLAMI TAHLILLARI ........ 148-159

*Murodova Iroda, Khamidov Tokhirjon*
ANALYSIS OF THE LINGUOCOGNITIVE ASPECT OF THE SEMANTICS OF METAPHORICAL INNOVATIONS ........ 160-163

*Mamatova Feruza Maxammadovna*
FENOMENOLOGIYA, FENOMEN VA ULARNING ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI ........ 164-168

*Burxonova Gulmira Olimjon qizi*
TURLI TIZIMLI TILLARDA SOTSIOMADANIY BIRLIKLAR SHAKLLANISHINING OʻZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TASNIFI ........ 169-172

*Berdiqulova Shaxnoza, Ruzmatova Gulnara*
BOGʻLOVCHILAR VA TINISH BELGILARINING PRAGMATIK KUCHI: OʻZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA ........ 173-177

*Musurmonova Barchinoy Hasan qizi*
FORS MATNSHUNOSLIGI TARAQQIYOTINING TARIXIY ILDIZLARI ........ 178-182

*Яркулова Фотима Усмановна*
ОДНОРОДНЫЕ ЧЛЕНЫ ПРЕДЛОЖЕНИЙ ........ 183-186

*Jo'raqulova Rayhon Xolboyevna*
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA LEKSIK BIRLIKLAR OBRAZ VA RAMZLARNI YUZAGA KELTIRUVCHI VOSITALAR ........ 187-190

*Musoeva Hayitgul Urokovna*
THE LINGUO-STYLISTIC ANALYSIS OF THE WORD "HEART" IN ENGLISH LANGUAGE BASED ON THE NOVEL "PRIDE AND PREJUDICE" ........ 191-195

*Yuldasheva Kamola*
SINXRON TARJIMA JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN PSIXOFIZIOLOGIK STRATEGIYALAR ........ 196-202

*Matkarimova Malika Oybek qizi*
HOW TO TEACH ENGLISH USING SIMPLE SCIENCE EXPERIMENTS ........ 203-206

Kamola Hatamova
HUJJATCHILIK TARAQQIYOTINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI ........ 207-210

**12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

*Uralov Sharof Urazaliyevich*
PROBATSIYA INSPEKTORLARIGA MA'MURIY BAYONNOMA TUZISH VAKOLATINI BERISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA AMALIY AHAMIYATI ........ 211-216

*Mamatmurodov Farrux*
METHODS OF RESOLVING DISPUTES ARISING FROM ISLAMIC FINANCE SERVICES. INTERNATIONAL EXPERIENCE ........ 217-222

*Муталипова Лола Фархадовна*
СМАРТ-КОНТРАКТЫ И БЛОКЧЕЙН: ВЫЗОВЫ ДЛЯ ДОГОВОРНОГО ПРАВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН ........ 223-234

*Нормуродова Азиза Азимжон кизи*
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СЕКСУАЛЬНОГО НАСИЛИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ . 235-241

*Abdullayeva Parvina Baxrilloyevna*
RAQAMLI PLATFORMALARDAGI BANDLIKNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ........ 242-246

**13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

*Ismaylov Azerbay Saparniyazovich*
RAQAMI IQTISODIYOT SHAROITIDA QORAQALPOQ XALQ AN'ANALARIDAGI MAVJUD PEDAGOGIK USULLAR TRANSFORMATSIYASI ........ 247-252

*Namozova Dilorom Tursunovna*
MUSIQA TA'LIMIDA TALABALARDA IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MOHIYATI ........ 253-261

*Давыдова Руфина Артуровна*
РОЛЬ ГУМАННОЙ ПЕДАГОГИКИ В ПРЕОДОЛЕНИИ АГРЕССИИ И ОТЧУЖДЕНИЯ СРЕДИ ШКОЛЬНИКОВ ........ 262-266

*Gaziev Baxromjon Valievich*
OT SPORTIDA MALAKALI CHAVANDOZLARNI TAYYORLASH MUAMMOLARI ........ 267-273

*Toshtemirova Mohichehra G'olibjon qizi*
DIZAYN TA'LIMINING XALQARO TAJRIBASI:
O'QUV DASTURLARI VA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR TAHLILI ........................................ 274-279

*Rakhmonova Dilnura Saidovna*
TEXNIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING
KREATIV FIKRLASHINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI:
AMALIYOT VA TAJRIBA ........................................................................................................ 280-286

*Yakubova Barno Baxtiyorovna*
MUSTAQIL VA IJODIY ISHLASH FAOLIYATLARINI RIVOJLANTIRISHGA
QARATILGAN MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH ................................................................ 287-290

*Rixsiboyev Behzod Alisherovich*
IJTIMOIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MADANIY PLYURALIZMNING O'RNI ........ 291-295

*Islamova Moxichexra Bekmurzayevna*
TALABLARNI TANQIDIY FIKRLASHGA UNDOVCHI O'QITUVCHI STRATEGIYALARI ..... 296-301

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 5 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

## 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI – PEDAGOGICAL SIENCE

**Received:** 2 June 2025
**Accepted:** 15 June 2025
**Published:** 30 June 2025

*Article / Original Paper*

# TRANSFORMATION OF EXISTING PEDAGOGICAL METHODS IN KARAKALPAK FOLK TRADITIONS IN THE CONDITIONS OF DIGITAL ECONOMY

**Ismailov Azerbay Saparnyyazovich**
Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences
Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

**Abstract.** This article will study the process of transforming pedagogical methods in the traditions of the Karakalpak people in the conditions of a digital economy. The impact of digital technologies on education, the need to modernize traditional pedagogical methods and the introduction of new educational methodologies will be considered. The article will help to develop new approaches to education in the future, analyzing the changes in the culture and educational system of Karakalpak.

**Keywords:** digital economy, Karakalpak folk traditions, pedagogical methods, transformation, educational innovations.

# RAQAMI IQTISODIYOT SHAROITIDA QORAQALPOQ XALQ AN'ANALARIDAGI MAVJUD PEDAGOGIK USULLAR TRANSFORMATSIYASI

**Ismaylov Azerbay Saparniyazovich**
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida Qoraqalpoq xalq an'analaridagi pedagogik usullarni transformatsiya qilish jarayoni o'rganiladi. Raqamli texnologiyalarning ta'limga ta'siri, an'anaviy pedagogik usullarni modernizatsiya qilish zarurati hamda yangi ta'lim metodikalarini joriy etish masalalari ko'rib chiqiladi. Maqola Qoraqalpoq madaniyati va ta'lim tizimidagi o'zgarishlarni tahlil qilib, kelajakda ta'lim sohasida yangi yondashuvlarni ishlab chiqishga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** raqamli iqtisodiyot, Qoraqalpoq xalq an'analari, pedagogik usullar, transformatsiya, ta'lim innovatsiyalari.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI5Y2025N41

**Kirish.** Raqamli iqtisodiyot bugungi kunda global miqyosda barcha sohalarga, jumladan, ta'limga ham jiddiy ta'sir o'tkazmoqda. Qoraqalpoq xalqining madaniy merosi va an'analari ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada, raqamli iqtisodiyot sharoitida Qoraqalpoq xalq an'analaridan kelib chiqadigan pedagogik usullarni modernizatsiya qilish va ularni yangi sharoitga moslashtirish zarurati tahlil qilinadi. Ta'lim sohasida an'anaviy metodlardan foydalanish, ularni innovatsion yondashuvlar bilan boyitish, o'quv jarayonining samaradorligini oshirish uchun muhimdir.

**Asosiy qism.** Raqamlashtirish tushunchasini koʻpchilik korxonalarga axborot texnologiyalarni joriy etishga sinonim sifatida koʻrishadi, lekin korxona axborot tizimlari va biznes-jarayonlarini avtomatlashtirish raqamli transformatsiyani bildirmaydi. Umuman olganda, raqamli transformatsiya jarayonga axborot tizimlarini joriy qilishdan yuqori turadi. Raqamli transformatsiyadagi “transformatsiya” soʻzini biznesni toʻliq almashtirish sifatida taʼriflash mumkin. Bunda korxonani rivojlantirish strategiyasi, uning maqsadi va yondashuvlari, mahsulotlari va xizmatlari, mijozlar bilan oʻzaro aloqasi, tuzilmasi, madaniy munosabati toʻliq oʻzgaradi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida Qoraqalpoq xalq anʼanalaridagi pedagogik usullar transformatsiyasi bugungi taʼlim tizimining dolzarb masalalaridan biridir. Raqamli texnologiyalar taʼlim jarayoniga kirib kelishi, pedagogik metodlarni yangilash va modernizatsiya qilish zaruratini tugʻdirmoqda. Qoraqalpoq xalqining boy madaniyati va anʼana-lariga asoslangan pedagogik usullar hozirgi kunda oʻzgarishlarga uchrab, yangi imkoniyatlarga yoʻl ochmoqda. Raqamli transformatsiya koʻplab sohalarda boʻlgani kabi, davlat sektorida, yaʼni meditsina va sogʻliqni saqlash, taʼlim, madaniyat va boshqa faoliyat sohalariga ham tegishli. Oliy taʼlim tizimiga raqamli texnologiyalarni jadal joriy etish, axborot makonini shakllantirish va raqamli taʼlim tizimlarini rivojlantirish oliy taʼlim muassasalari talabalarining oʻquv jarayonini tashkil etish, taʼlimga yondashuvlarni sifatli qayta koʻrib chiqish, shuningdek, taʼlim tizimini jadallashtirish toʻgʻrisida yangi ilmiy va pedagogik gʻoyalarni shakllantirishga olib keladi. Raqamli va axborot texnologiyalarini taʼlim tizimiga va oʻquv jarayoniga keng joriy etish dunyo miqyosidagi tendensiya boʻlib, yaqinda taʼlim tizimida sodir boʻlgan eng muhim jarayonlardan birini anglatadi.

Bir tomondan, raqamli iqtisodiyot sharoitida taʼlimning yangi formatlari va metodlari taqdim etilmoqda. Masalan, masofaviy taʼlim, online darslar va multimedia materiallar koʻplab talabalarni oʻziga jalb qilmoqda. Bunday oʻzgarishlar Qoraqalpoq mintaqasida ham oʻz hissasini qoʻshmoqda. Ushbu jarayonda anʼanaviy pedagogik usullar tarjima qilib, raqamli formatga oʻtkazilishi muhim ahamiyatga ega. Taʼlimda raqamlashtirishning rivojlanishi natijasida yaqin kelajakda bu sohada koʻplab yangi texnologiyalar va sohalarning rivojlanishi kuzatilmoqda, ularga misol qilib quyidagilarni keltirish mumkin: bulutli xizmatlar (talabalarning bulutli sohada ishlash, maʼlumotlarni saqlash va ayirboshlash, bulutli platformalar asosida darslarga onlayn kirish imkoniyatlarini kengaytirish), oʻquv jarayonini sozlash (samarali oʻqitishni taʼminlash uchun individual oʻquv rejalari va freymvorklarini ishlab chiqish, oʻziga kerakli fanni tanlash, dars jadvalini tuzish), yaxshilangan qulaylik (imkoniyati cheklangan hamda ijtimoiy himoyaga muhtojlar uchun ovozlashtirilgan matnlar, koʻzi ojizlar uchun yaratilgan veb-saytlar kabi masofali taʼlimning yanada qulay vosita va imkoniyatlarini taʼlim jarayonlariga qoʻllash), virtual reallik imkoniyatlari (taʼlim jarayoniga virtual sayohatlar, amaliy topshiriqlarni bajarish uchun trenajyorlar kabi virtual reallik elementlarni qoʻllash talabalarda nafaqat bilimlarni nazariy, balki virtual reallik texnologiyalari asosida amaliy qoʻllash imkoniyatlarini kengaytiradi).

Anʼanaviy Qoraqalpoq pedagogik usullar urf-odat, tarix va madaniyat bilan bevosita bogʻliq. Mahalliy anʼanalarga asoslangan oʻqitish metodlari, oʻquvchilarning eʼtiborini jalb etishda oʻziga xos usulga ega. Biroq, raqamli iqtisodiyot xavflarini eʼtiborga olib, bu usullarni modernizatsiya qilish zarur. Oʻz navbatida, yangi pedagogik metodlar orqali oʻquvchilarni zamonaviy buzilishlar va raqamli olamga tayyorlash lozim. Qoʻshimcha ravishda, raqamli

texnologiyalar ta’limga innovatsion yondashuvlarni joriy etadi. Qoraqalpoq xalqining an’anaviy bilimlarni saqlab qolishi va ularni raqamli platformalarga oʻtkazishi, kelajak avlod uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi. Bu jarayonda ta’limning barcha bosqichlari oʻzgarishi zarur, xususan, maktabgacha ta’limdan tortib oliy ta’limgacha.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va raqamlashtirishning yangi tendensiyalari davrida oliy ta’lim muassasalarida talabalarning samarali ta’lim olishlari uchun keng koʻlamli oʻzgarishlar olib borilmoqda. Raqamlashtirishni rivojlantirishning hozirgi darajasi va zamonaviy avlodning xususiyatlari ta’lim jarayonida yuqorida keltirib oʻtilgan raqamli texnologiyalar sohasi (buyumlar interneti, blokcheyn, katta ma’lumotlar) va yuqori texnologiyali raqamli texnologiyalar (onlayn-sinflar, aqlli sinflar, analitika, sun’iy intellekt)ning rivojlanishi bilan ahamiyatli. Bundan tashqari, yaqin kelajakda bulutli xizmatlar, oʻquv jarayonini sozlash, yaxshilangan qulaylik va virtual reallik imkoniyatlari rivojlanishi natijasida oliy ta’limning raqamlashtirilishining roli yanada oshadi. Shuni qayd etish lozimki, ta’limni raqamlashtirish birinchi navbatda, talabalar va oʻqituvchilar oʻrtasida onlayn koʻrinishdagi muloqot integratsiyasini rivojlantirsa, ikkinchi tomondan, talabalarning oʻz ustida ilgʻor oʻquv texnologiyalaridan foydalangan holda mustaqil ishlash koʻnikmalarini shaklantiradi. Bu esa hozirgi rivojlanish jarayonida raqamlashtirishning yangi tendensiyalarini ta’lim jarayoniga qoʻllashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, oliy ta’lim transformatsiyasi oliy ta’lim universitetlarini xalqaro masofaviy ta’lim bozoriga olib kirish, raqamli texnologiyalar yordamida nafaqat bilim olish va universitetni boshqarish jarayonini, balki bilimning oʻzini qayta tiklashi, kelajakdagi bitiruvchilar orasida raqamli kompetensiyalarni shakllantirishi kerak.

Raqamli iqtisodiyot doirasida Qoraqalpoq xalq an’analari asosida tayyorlangan materiallarni ishlab chiqarish va tarqatish oʻqituvchilar uchun yangi chaqiriqlarni keltirib chiqaradi. Masalan, Qoraqalpoq xalqining urf-odatlariga oid video darslar yoki multimedia taqdimotlari tayyorlash orqali, an’analarni zamonaviy yoshlar uchun qiziqarli qilib taqdim etish mumkin. Bular, oʻz navbatida, oʻquvchilarning qiziqishini oshiradi va ta’lim jarayonini jonlantiradi. Ta’limning raqamli transformatsiyasi — bu “raqamli yetuklik”ka erishish jarayoni boʻlib, uning natijasida ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini birlashtiruvchi, yagona axborot tizimlari majmuasiga asoslangan raqamli ta’lim muhiti shakllanadi. Raqamli texnologiyalardan ta’lim sohasida foydalanish boshqa sohalarga nisbatan yanada dolzarb va ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda raqamli ta’lim texnologiyalari ta’lim tizimining barcha bosqichlarida joriy qilinmoqda. Biroq ushbu texnologiyalardan samarali foydalanish uchun, avvalo, ular bilan ishlashga doir zarur bilim, koʻnikma va malakalarga ega boʻlish talab etiladi. Faqat ana shunday sharoitdagina raqamli texnologiyalardan kutilgan natijaga erishish mumkin boʻladi. Oliy ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalardan foydalanish quyidagi yoʻnalishlarda namoyon boʻlmoqda: elektron darsliklar va oʻquv qoʻllanmalarni oʻquv jarayoniga joriy etish, ushbu materiallar asosida dars mashgʻulotlarini tashkil etish; masofaviy ta’lim tizimlarini rivojlantirish; boshqaruv faoliyatini onlayn shaklda amalga oshirish; talabalar fikr-mulohazalarini muntazam monitoring qilish; avtomatlashtirilgan test va baholash tizimlarini ishlab chiqish. Shu bilan birga, Moodle, Google Classroom, Edmodo, MS Teams, Zoom kabi platformalar ta’lim jarayonini raqamlashtirishda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Interaktiv oʻquv jarayonlarini tashkil qilishda esa Kahoot, Mentimeter, Quizizz kabi vositalar keng qoʻllanilmoqda. ChatGPT kabi sun’iy intellekt asosidagi texnologiyalar talabalarning

individual ta'lim ehtiyojlariga moslashishda, oʻquv matnlarini yaratishda va fikrlarni tahlil qilishda yordam bermoqda. Shuningdek, virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) texnologiyalarining qoʻllanilishi, kompyuter fanlarida dasturiy vositalar bilan ishlash (masalan, Python, MATLAB, AutoCAD) ta'limning texnologik integratsiyasini chuqurlashtirmoqda. Bu jarayon, shubhasiz, zamonaviy raqamli ta'lim muhitining shakllanishiga xizmat qilmoqda. Raqamli texnologiyalar zamonaviy ta'lim jarayonidagi tub oʻzgarishlarni amalga oshiruvchi asosiy katalizator sifatida e'tirof etilmoqda [4]. Ushbu texnologiyalar ta'limda faqatgina axborotni yetkazish vositasi emas, balki yuqori darajadagi fikrlash koʻnikmalarini shakllantirish, konseptual tushunchalarni rivojlantirish hamda oʻquvchilarning ijodiy yondashuvi, muammolarni hal qilish strategiyalari va tasavvur doirasini kengaytirishga xizmat qiluvchi pedagogik model sifatida namoyon boʻlmoqda. Ayniqsa, konstruktivistik yondashuv, proyekt asosidagi ta'lim (Project-Based Learning), hamkorlikka asoslangan ta'lim (Collaborative Learning) va differensiallashtirilgan yondashuvlar raqamli muhitda yangi sifat bosqichiga koʻtarilmoqda. Bu jarayonni chuqurroq tushunish uchun Mishra va Koehler tomonidan ishlab chiqilgan TPACK (Technological Pedagogical Content Knowledge) modeli muhim nazariy asos boʻlib xizmat qiladi. Mazkur modelga koʻra, zamonaviy oʻqituvchidan nafaqat predmet boʻyicha chuqur bilim, balki raqamli texnologiyalarni mazmun va pedagogik maqsadlar bilan uygʻunlashtirish qobiliyati ham talab etiladi. Shuningdek, Bloom taksonomiyasining raqamli versiyasi (Digital Bloom's Taxonomy) asosida yuqori darajadagi kognitiv faoliyat — tahlil qilish, sintez qilish, baholash va yaratish — zamonaviy texnologiyalar orqali qoʻllab-quvvatlanadi. Bu esa raqamli vositalar orqali oʻquvchilarning chuqur oʻzlashtirishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, sun'iy intellekt (masalan, ChatGPT), adaptiv oʻquv tizimlari, gamifikatsiya (Kahoot, Quizizz), tahliliy platformalar (Learning Analytics), shuningdek, multimodal kontentlar (video darslar, interaktiv simulyatsiyalar, AR/VR) oʻquvchilarning individualligini hisobga olgan holda ta'lim samaradorligini oshirishda muhim vositalar sifatida paydo boʻlmoqda. Raqamli texnologiyalarni ta'limga strategik integratsiya qilish, shubhasiz, XXI asr ta'limi talablariga javob beruvchi, moslashuvchan va innovatsion muhit yaratishga xizmat qiladi [2].

XXI asrda bilimlarni faqatgina kitoblar orqali emas balki internet va zamonaviy texnologiyalardan rivojlantiriladi. Ta'lim tizimida bugungi kun oʻquvchilarning talab va istaklariga javob beradigan ta'limni oʻqituvchi bera olmasa, bunday ta'lim tizimi eskirgan hisoblanadi. Hozirgi kun yoshlari eskirgan uslubda ta'lim olishni xush koʻrishmaydi, ularga zamonaviy texnologiyalar yordamida ta'lim berilsa har qanday fanni oʻzlashtirish oson boʻladi va ta'lim tizimi ancha rivoj topadi. Dunyo ta'lim tizimlari XXI asr oʻrganuvchilariga zamonaviy texnologiyalarni ta'limga moslashtirish uchun tez oʻzgarish kerak. Qoraqalpoq pedagogik usullarini transformatsiyalash, nafaqat an'anaviy bilimlarni saqlab qolish, balki yangi formatdagi ta'limni joriy etish bilan bogʻliq. Raqamli texnologiyalar yordamida oʻqituvchilar va oʻquvchilar oʻrtasidagi aloqani yaxshilash, oʻqish va oʻrgatish jarayonlarini ilgari suradi. Bunda, interaktiv usullar va virtual muhitlardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, raqamli oʻqitish jarayonida qulay sharoit yaratilishi lozim. Talabalar, zamonaviy platformalar yoki ilovalar orqali ta'lim olishlari, oʻz vaqtlarini va resurslarini samarali foydalanishi mumkin. Bu jarayonda, oʻquvchilarning geo-iqtisodiy joylashuvidan qat'i nazar, ta'lim olish imkoniyatlari kengayadi. Shu bilan birga, pedagogik usullarni transformatsiyalash Qoraqalpoq an'analarini tanitish imkoniyatlarini oshiradi. Raqamli ta'lim jarayonida mahalliy madaniyatni va

an'analarni foiz yangilik sifatida taqdim etgan holda, xalqning boy madaniyatini saqlab qolish va uni yanada rivojlantirish maqsadida, oʻquvchilarga yondashuv qoʻllanilishi kerak. Raqamli dunyoda axborot-kommunikatsiya texnologiyalar oʻzaro ta'sir koʻrsatgan holda ta'lim tizimning rivojlanishiga katta hissa qoʻshadi. Ushbu texnologiyalarni jalb qilish onlayn topshiriqlar, videodarslar, onlayn testlar, kompyuter va mobil ilovalarni har xil sohada foydalanishga imkon yaratadi. Ushbu texnologiyalarni jalb qilish orqali pedagogik vazifalarni aniqlash maqsadga muvofiq. Digital Pedagogy Lab va Hybrid Pedagogy jurnalining hammuassisi J. Strommel raqamli pedagogika raqamli vositalarni fetishizatsiya qilmaydigan pedagogikaga yoʻnaltirilganligini alohida ta'kidlaydi [1]. Agar birinchi qoida raqamli texnologiyalarni pedagogik faoliyatda qoʻllashdan maqsad mavjud ta'lim shakllarini almashtirish emas, balki oʻqituvchi va uning oʻquvchilarining ish samaradorligini oshirishi mumkin boʻlgan yangi shakllarni izlash ekanligini nazarda tutsa, ikkinchi qoida oʻqituvchi va uning oʻquvchilarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning roli muhimligini eslatadi.

Natijada, raqamli iqtisodiyot sharoitida Qoraqalpoq xalq an'analari boʻyicha pedagogik usullarni transformatsiya qilish oʻz oʻrnida muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon ta'lim muassasalarida an'anaviy bilimlarni zamonaviy talablar bilan uygʻunlashtirish, avlodlararo bogʻliqlikni saqlab qolish va kelajakda ta'limni rivojlantirishga xizmat qiladi. Oʻz navbatida, bu Qoraqalpoq xalqining madaniyatini saqlab, uni yangi avlodga yetkazadigan ta'lim tizimini yaratishga xizmat qiladi [3].

**Xulosa.** Maqolada koʻrib chiqilgan an'analarga asoslangan pedagogik usullar, raqamli iqtisodiyot sharoitida yangilanishi va transformatsiya qilinishi zarurligi koʻrsatilgan. Qoraqalpoq xalqining oʻziga xos an'analarini raqamli texnologiyalar bilan birlashtirish, ta'lim jarayoniga yangi yondashuvlarni olib kelishi mumkin. Bu esa nafaqat mahalliy darajada, balki global ta'lim tizimida ham muhim oʻrin tutishi kutilmoqda. Shunday qilib, raqamli iqtisodiyot rivojlanishi Qoraqalpoq xalqining madaniy va pedagogik an'analarini saqlab qolish bilan birga, ularga zamon talablariga mos ravishda yangiliklar kiritish uchun imkon beradi. Shu bilan birga, raqamli ta'limning rivojlanishi va uning ta'lim tizimiga integratsiyasi zamonaviy pedagogik jarayonlarning ajralmas qismiga aylanmoqda. Ta'lim jarayonidagi raqamli texnologiyalar, oʻzining interaktiv, moslashuvchan va individual yondashuvlari bilan, oʻquvchilarning ijodiy va analitik fikrlash koʻnikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Raqamli texnologiyalarning oʻqituvchilar va talabalarga imkoniyatlar yaratishi, oʻquv materiallarini yanada samarali va interaktiv tarzda taqdim etish, shuningdek, ta'limning barcha bosqichlarida yuqori darajadagi kognitiv faoliyatni ragʻbatlantirishda muhim rol oʻynaydi. Pedagogikada raqamli texnologiyalardan foydalanish, shuningdek, ta'limning innovatsion yondashuvlari va pedagogik modellarni yaratishga asos boʻlib, yangi raqamli ta'lim muhitini tashkil etishda davom etmoqda. Bularning barchasi, oʻz navbatida, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot va raqamli yetuklikni rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

## Adabiyotlar/Литература/References:

1. J. stommel, Decoding digital pedagogy. Pt. 2: (Un) Mapping the terrain., USA, 2013.
2. Kholikova, R. E., Narkulov, D. T., Abilov, U. M., Khudoykulov, A. B., Karimov, N. R., Iskandarov, S. A., ... & Niyozova, N. S. (2023). Impact of Renaissances in The History of Uzbekistan And Causative Factors of The Third Renaissance. Journal of Law and Sustainable Development, 11(12), e2518-e2518.

3. Norkulov, D. T., Narkulov, S. D., & Iskandarov Sh, A. (2022). Alimova SG, Pardayev AA Umarova FS, Khudoykulov AB THE ROLE OF PHILOSOPHICAL THINKING AND PHILOSOPHICAL KNOWLEDGE IN UNDERSTANDING NATIONAL IDENTITY. ASEAN Journal on Science & Technology for Development, 39(4), 605-613.
4. Misri, M. E. (2024, December). Binary Water Wheel Plant Algorithm with Soft Gated Recurrent Unit for Software Defect Prediction. In 2024 4th International Conference on Mobile Networks and Wireless Communications (ICMNWC) (pp. 1-5). IEEE.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ S/5 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).